

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-fevral oyida viloyatda bajarilgan

QURILISH ISHLARI

KO'RSATKICHLAR:

*Qurilish-montaj ishlari
hajmi – 295,6 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi – 1,0 foiz*


*Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi – 70,3
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi
– 28,7 foiz*



2018 yilning yanvar-fevral oyi bo'yicha viloyatda 295,6 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,8 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 9,5 foiz punktga kamaydi.

Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 3,0 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 80,9 foizni tashkil etdi.


Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 3,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 83,3 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 2,0 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 102,7 foizni tashkil etdi. Jalaququq va Ulug'nor tumanidagi yirik korxonalar tomonidan jami 1,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 61,3 foizga teng bo'ldi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 70,3 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 292,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,8 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz punktga ko'paydi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 84,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 101,0 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 65,8 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 15,3 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 3,6 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika
qo'mitasi**

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37